## №10 SHARTNOMAGA 1-ILOVA.

Mijoz byudjet tashkilotidan bo'lganligi sababli, smetada ajratilgan mablag'dan ortiqcha suv sarf qilsa, mijoz ortiqcha sarflangan ichimlik suv mablag'ini o'z xisobidan to'laydi.

### LIMIT.

2022 yil

| № | O y l a r | Ulchov birligi | Miqdori | Narxi | Summa |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | YAnvar | m3 | 647 | 1545 | 999615 |
| 2. | Fevral | m3 | 647 | 1545 | 999615 |
| 3. | Mart | m3 | 647 | 1545 | 999615 |
| 4. | Aprel | m3 | | | |
| 5. | May | m3 | | | |
| 6. | Iyun | m3 | | | |
| 7. | Iyul | m3 | | | |
| 8. | Avgust | m3 | | | |
| 9. | Sentyabr | m3 | | | |
| 10. | Oktyabr | m3 | | | |
| 11. | Noyabr | m3 | | | |
| 12. | Dekabr | m3 | | | |
| | J a m i: | | 1941 | | 2998845 |

"Farg'ona suv ta'minoti" MCHJ
Uchko'prik tuman filiali
Bosh hisobchisi ____________

M I J O Z
1 сон касб хунар мактаби
бош хисобчи [illegible]

ICHIMLIK SUV ETKAZIB BERISH

## SH A R T N O M A. № 10

"24" январ 2022 yil Uchko'prik qishlog'i

Biz kuyida kul imzo qo'yuvchilar O.SHukurov asosida faoliyat ko'rsatuvchi "Farg'ona suv ta'minoti" MCHJ Uchko'prik tuman filiali deb ataladi, ikkinchi tomondan Ю. Арслонов orqali 1 сон касб хунар мактаби o'z nizomi asosida faoliyat kursatuvchi Mijoz deb ataladi va Ushbu shartnomani kuyidagilar xakida tuzdik.

### 1. SHARTNOMADAN MAKSAD.

1.1. Ichimlik suv ta'minoti korxonasi suv tarmogidan diametri ____________ mm bo'lgan ____________ o'tkazish joyi orqali Mijoz va unga karashli tashkilotlarga ichimlik suvi etkazib berish.

### 2. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI.

2.1 Tomonlar amaldagi «Uzbekiston Respublikasida kommunal suv ta'minoti tarmoklaridan foydalanish tartiblari» Koidalariga va boshka me'yoriy xujjatlarga amal kilish majburiyatini oladi.
2.1.2 Ichimlik suv ta'minoti korxonasi kuyidagilarni uz zimmasiga oladi:
2.1.3. Mijozga Ushbu shartnomada belgilangan xajmda yiliga 1941 kub/m, oyiga 647 kub/m , sutkasiga ____________ kub/m mikdorida ichimlik suv etkazib berish. SHartnomaning umumiy summasi QQS bilan 2998845 (икки миллион тўққиз юз тўқсон саккиз минг саккиз юз қирқ беш) сўм
2.2.1 Mijoz kuyidagilarni bajarishni uz zimmasiga oladi.
2.2.2. Ichimlik suv sarfining belgilangan limitlar va rejimiga, shuningdek 1 va 2 gurux iste'molchilariga ta'lukli limitsiz ob'ektlarga xisob-kitob kilib chikilgan sarf xarajatlarga rioya kilish.
2.2.3. Iste'mol kilinadigan suvni xisoblaydigan asbobga ega bulish. Suvni xisobini oladigan asbobni sotib olish, urnatish va unga xizmat kursatishni uz xisobidan amalga oshiradi.Suv xisobini kayd etuvchi asbob va kurilmalarning soz xolda saklanishini ta'minlash. Suv ulchagichni bir yilda bir marotaba texnik kurikdan utkazish.
2.2.4.Ichimlik suv ta'minoti korxonasining ruxsati bilangina suv abonentlarini uzining xususiy suv va ichimlik suv ta'minoti tarmogiga ulash va texnik nazoratini olib borish. .
2.2.5. Suv ta'minoti tizimining unga kiruvchi barcha inshootlar va kurilmalar ishini shartnoma shartlarini bajarilishini tekshirish uchun Ichimlik suv ta'minoti korxonasi vakillarini Mijoz xujaligiga tusiksiz kirishini ta'minlash.
2.2.6 Mijiz ichimlik suv korxonasi tomonidan kursatilgan xizmatlar xakkini kamida 100% foyizini oldindan xar oyning 15 kuniga kadar tulab borish majburiyatini oladi.
2.2.7 Mijoz Ichimlik suv korxonasi tomonidan kursatilgan xizmat xakkini, Ichimlik suv ta'minoti korxonasi tomonidan takdim etilgan xisob-varagini olgandan sung 5 kun muddat ichida tulashi shart.
2.2.8 Mijozni nomi, bankdagi joriy xisob rakami va boshka xususiyatlari uzgargan takdirda u 5 kun muddat ichida Ichimlik suv korxonasiga yozma ma'lumot berishi shart.

### 3. MAXSUS SHARTLAR.

3.1.1 Mijoz kuyidagi xujjatlarga ega bulishi zarur.
-ifloslantiruvchi moddalarni tashlashga cheklangan xolda yul kuyilganligi xakida xujjat pasporti.
- suvdan foydalanish va suv bilan ta'minlash shartlari shuningdek ichimlik suv tarmogiga chikindi suvlarni tashlashga Ichimlik suv ta'minoti korxonasining ruxsatnomasi.
- suv ta'minoti ulashga ichimlik suv korxonasining ruxsatnomasi.
3.1.2 Mijoz tomonidan mazkur shartnomaga uziga karashli barcha inshootlarning joylashuvi aks etgan sxema ilova kilinishi shart. Sxemada kuyidagilar ilova kilinishi shart.
Inshoatlarning joylashuv urni va xajmi .
Suv ulchagichlarning soni va ularning diametri.
Ichimlik suv ta'minotining xajmi, suv xajmi balansi kerakli suvning tasdiklangan meyoriy xajmi kabul kilinayotgan ichimlik suvlarining mikdori va tarkibi.
Suv ta'minoti va ichimlik suvlarini kabul kilish sxemalari Ichimlik suvini iste'mol kilishni kamaytirish chora tadbirlari kursatilgan bulishi lozim.
Ushbu sxemada aks etgan shartlar va mijoz ob'ektlarini suv bilan ta'minlash undagi suv ulchagichlarning but- butunligi va plombali bulishi xamda suv utkazish inshoatlari va suv ulchash tarmogi kurilmalari sozligi uchun javobgar ma'sul shaxsni .

Mijoz uzining 202_ yil ____________ dagi buyrugi bilan ____________ tayinlaydi.

### 4. XISOBGA OLISH TARTIBI

